


O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi

kengashning 2025-yil 14 - avgustdagi №-3 - sonli bayonnomasiga ko'ra № UMO-75 asosida ro'yxatga olinib tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2030 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/bo'lim	Patologik anatomiya va sud tibbiyoti			
O'quv dastur nomi	Patologik anatomiya			
O'qish turi	Umumiy malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	B.A. Magrupov, Z.S. Zalyalova, X.A. Murotov			
Siklning umumiy soati	144 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d. professor B.A. Magrupov	PhD, katta o'qituvchi T.A.Vervekina	t.f.n., katta o'qituvchi V.U.Ubaydullayeva	Assisten X.A. Murotov	Assisten Z.S. Zalyalova

Maqsad	Patologoanatom vrachlarda murda tekshiruvlarini va biopsiyani o'tkazish ko'nikmalarini mustahkamlash, qo'shimcha klinik, laborator, instrumental tekshiruvlarni tahlil qilish va olingan natijalardan tashhisni to'g'ri tuzishda foydalanish, kasalliklarning nozologik shakllari bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash. Hamda kasallikning diagnostika, davolash va profilaktikasi ixtisosligi bo'yicha ushbu dastur mavzulari orqali bilim va amaliy ko'nikmalarini chuqur tasdiqlash va yangilash, amaldagi standartlar va dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarga asoslangan protokollar, shuningdek tibbiy qonunlar,
---------------	---

	sogʻliqni saqlash muassasalarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati toʻgʻrisidagi boshqa qonunlarni ish faoliyatida ishlata olish va uz vaktida yangilash.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Oʻzbekiston Sogʻliqni saqlash vazirligi normativ hujjatlarga muvofiq patologoanatom vrachlari uchun moʻljallangan.
Sikl vazifalari	-autopsiya va biopsiya natijalarini toʻgʻri tahlil qilish koʻnikmasini takomillashtirish; - kasallikning barcha darvlaridagi klinik va morfologik belgilarini va oʻzgarishlarini bila olish va taqqoslab olish malakasini rivojlantirish; -klinik va patologoanatomik tashhislarni taqqoslash orqali klinitsistlar bilan birgalikda tashxisni va tibbiy ish sifatini tahlil qilish malakasini rivojlantirish; -patologik anatomiya boʻlimining autopsiya materialini umumlashtirish va tahlil qilish boʻyicha bilimlarni yangilash, natijalarini kasalxonaning tibbiy guruhlarida, shuningdek sogʻliqni saqlashga tegishli organlarida majburiy ravishda muhokama qilish koʻnikmalarini takomillashtirish. - inson hayoti va davolash sharoitlarining oʻzgarish munosabati bilan bogʻliq kasalliklarning oʻzgarishinigʻ patomorfozini oʻrganish;
Sikl tarkibi	MODUL: Oʻzbekiston Respublikasining rivojlantirish strategiyasi - Sogʻliqni saqlash yangi tizimini rivojlantirish, Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi meyoriy hujjatlar, preventiv tibbiyot tamoyilari. Modul: Xalqaro standartlar asosida tashxis tuzish mezonlari. Modul: Tibbiy guvohnoma toʻldirish xalqaro qoidalari. Modul. Ekspertiza xulosalarining tahlil qilish mezonlari. Patologik anatomiyaning dolzarb masalalari. Kasalliklar morfologiyasida zamonaviy tasnifi.

O‘qish bazalari	Asosiy: Respublika Shoshilinch tibbiy yordam Markazi  Qo‘shimcha bazalar: sayyor va qo‘shimcha sikl o‘tkaziladigan bazalar
Simulyatsion asbob/uskunalar	  